QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ XOJELI RAYONÍ HÁKIMI SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI XO‘JAYLI TUMANI HOKIMI Q A R O R I

2021 - yil 2 - oktabr 143-13-191-Q/21 Xo‘jayli tuman hokimligi

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022-yil uchun band qilish haqida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni va “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish haqida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2008-yil 29-30-son, 277-modda)ning 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoyitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng oz sonini belgilash va band etib qo‘yish tartibi haqida”gi reja (O‘zbekiston Respublikasi hujjatlari to‘plami, 2008-yil 34-son, 333-modda)ga asoslanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalib kelayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun Xo‘jayli tumanida 2022-yil uchun ish o‘rinlarini band etib qo‘yish maqsadida, Xo‘jayli tumani hokimi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta‘minlash haqida”gi Qonunning 17-moddasiga asoslanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan 3797 nafar shaxslarni tashkil qiluvchi 2,3 foiz miqdorida, shu hisobdan:

a) nogironlar uchun 4,5 foiz – 4 nafar shaxsni;

b) 14 yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg‘iz hamda ko‘p farzandli ota-onalar uchun 36 foiz – 32 nafar shaxsni;

v) ta’lim muassasalarini bitiruvchi yoshlar uchun 43,8 foiz – 39 nafar shaxsni;

g) muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 7,9 foiz – 7 nafar shaxsni;

d) tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun 5,6 foiz – 5 nafar shaxsni;

e) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, jazoni ijro etayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun 2,2 foiz – 2 nafar shaxs miqdorida ish o‘rinlari belgilansin.

2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022-yil uchun band etib qo‘yish lozım bo‘lgan korxonalar ro‘yxati 1-ilovaga, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2022-yil uchun band etib qo‘yish bo‘yicha tuzilgan maxsus komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish o‘rinlari

umumiy miqdoriniing kamida 25 foizi uchun, 2022-yilning 10-aprel kunidan kechiktirmasdan ish o‘rinlarining qolgan qismi 75 foizini tashki qilish (ajratish yoki band etib qo‘yish) haqidagi, ya’ni har bitta kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band etib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va yechim bo‘yicha chiqarilgan farmoyish nusxalarini tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona va muassasalar rahbarlari ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari band etib qo‘yish tartibi haqida”gi rejaga ko‘ra belgilangan muddatlarda tashkil qilish (ajratish yoki band etib qo‘yish) va ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z burchlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoyitlariga yarasha bo‘lishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror talablari bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga “Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari band etib qo‘yish tartibi haqidagi reja”ning 21-bandiga ko‘ra jarimaga tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi haqidagi Qonunini tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli (AV ro‘yxat raqami №3163, 31.03.2019-yil) buyrug‘iga asos subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotda joriy etilganini hisobga olib, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamlariga tegishli shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga olgan idoralarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam ish haqining 2 barobari miqdorida haq to‘lash aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida aholi bandligiga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari hisobga olinsin.

7. Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi ushbu qarorning tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga etkazib berilishini hamda uning ijrosi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

8. Xo‘jayli tumani hokimining 2020-yil 25-sentabr kungi “Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2021-yil uchun band etib qo‘yish haqida”gi 735/09-sonli qarori (“Xojeli haqiqati” gazetasi 2020-yil 15-oktyabr kungi №16 (5926)-sonida) 2021-yil 31-dekabr kunidan o‘z kuchini yo‘qotqan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining o‘rinbosarlari A.Kutlumuratov va K.Seytmuratov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Ermashev**

Хўжайли туман ҳокимининг
2021 йил 2 октябрдаги
143-13-191-Q/21-сон қарорига
1-илова

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2022-yil uchun band etib qo‘yish lozım bo‘lgan korxonalar ro‘yxati

№	Tuman hududidagi korxona va tashkilotlar nomi	Ishchilar soni	Kvota bo‘yicha ish o‘rni	Darajalari						
				14 yoshga to‘lmagan farzandlari va nogiron farzanlari bor yolg‘iz hamda ko‘p farzandli ota-onalar uchun	Ta’lim muasassasi bitiruvchi yoshlar uchun	Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun	Nogironlar uchun	Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchilar ro‘yxatida turgan, pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, jazoni ijro etayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun	Odam savdosidan jabrlangan shaxslar ushun
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**
1	Xo‘jayli tumani irrigatsiya bo‘limi	44	1	1						
2	Xo‘jayli davlat o‘rmon xo‘jaligi	49	2	1	1					
3	"O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati Xo‘jayli ishlab chiqarish korxonasi" mas’uliyati cheklangan jamiyati	25	2			2				
4	"Xo‘jayli tuman yo‘llardan foydalanish" unitar korxonasi	81	5		1	2			2	
5	O‘zbekiston Respublikasi "Suv transporti" assotsiatsiyasi Qoraqalpog‘iston suv yo‘llari Xo‘jayli texnik uchastkasi davlat unitar korxonasi	98	4		2	2				
6	Xo‘jayli tumani veterinariya va chorvachilkni rivojlantirish bo‘limi	29	1	1						
7	Xo‘jayli tumani obodonlashtirish boshqarmasi	160	7	3	1			3		
8	Xo‘jayli tumani madaniyat bo‘limiga qarashli Madaniyat va aholi dam olish markazi	30	1	1						
9	Xo‘jayli tumani maktabgacha ta’lim bo‘limi	40	1	1						
10	5-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	43	2		2					
11	11-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	63	2		2					
12	15-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	42	2		2					
13	8-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	39	2	1	1					
14	10-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	69	2	1	1					
15	6-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	32	2	1	1					
16	22-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	34	1		1					
17	Xo‘jayli tumani "Barkamol avlod" bolalar markazi	38	2	1	1					
18	20-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	39	1		1					

19	9-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	40	1		1					
20	16-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	41	1		1					
21	13-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	41	2	1	1					
22	18-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	41	1	1						
23	25 - sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	41	2	1	1					
24	3-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	53	2	1	1					
25	4-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi	53	2	1	1					
26	Respublika ko‘p tarmoqli bolalar sanatoriyasi	56	2	1	1					
27	27-sonli umumta’lim maktabi	62	1	1						
28	33-sonli umumta’lim maktabi	62	1	1						
29	Xo‘jayli kasb-hunar maktabi	69	3	1	1	1				
30	5-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi	72	2	1	1					
31	29-sonli umumta’lim maktabi	75	1	1						
32	35-sonli umumta’lim maktabi	80	1	1						
33	1-sonli Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	107	2	1	1					
34	6-sonli umumta’lim maktabi	108	1	1						
35	41-sonli umumta’lim maktabi	110	1	1						
36	15-sonli umumta’lim maktabi	113	1		1					
37	28-sonli umumta’lim maktabi	115	1		1					
38	Xo‘jayli tumani tibbiyot birlashmasi	1503	21	5	10	2	2	2		
	Jami:	**3797**	**89**	**32**	**39**	**7**	**4**	**5**	**2**	**0**

Хўжайли туман ҳокимининг
2021 йил 2 октябрдаги
143-13-191-Q/21-сон қарорига
2-илова

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2022-yil uchun band etib qo‘yish bo‘yicha tuzilgan maxsus komissiya ro‘yxati

1.	J.Ermashev	-	Tuman hokimi, komissiya rahbari
2.	A.Kutlumuratov	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya rahbari o‘rinbosari
3.	K.Seytmuratov	-	Tuman hokimi o‘rinbosari, komissiya rahbari o‘rinbosari
4.	S.Dursimbetova		Tuman hokimi o‘rinbosari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
5.	A.Ilmuratova	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
6.	R.Orazbaev	-	Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori, komissiya kotibi

Eslatma: *Komissiya a’zolari lavozimi o‘zgargan taqdirda unung o‘rniga ushbu lavozimga tayinlangan yoki vazifasini bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*